

**YO'LYAXSHIYEV QURBON**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti TARIX fakulteti II bosqich talabasi

---

**EFTALLAR DAVLATI VA GUPTALAR SULOLASI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada V asr o'rtalarida vujudga kelgan Eftaliylar davlati va Qadimgi Hindistonda Guptalar sulolasi o'rtasidagi dastlabki aloqalar va iliq munosabatlar hamda urushlar to'grisida.

**Kalit so'zlar:** Davlat, markaziy boshqaruv, hududlar, o'lkalar, ma'muriy va iqtisodiy, savdo aloqalari, poytaxtlar, chegara hududlar, urushlar, soliq va boshqaruv.

---

Eftallar davlati O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarda milodiy V asr o'rtalarida barpo etilgan davlat bo'lib, VI asr boshlarida ravnaq topadi va kuchayadi. Uning chegara hududlari hozirgi Afg'onistonning katta qismlari, O'rta Osiyo Sharqiy Turkistonning sharqiy va janubiy-sharqiy viloyatlarini o'z ichiga oladi. Hindistonning katta qismini Baqtriya-Toxariston tashkil etgan. Poytaxti Balx hisoblangan. O'rta osiyodagi Eftaliylar davlati bir qancha yarim mustaqil mulklarning konfederatsiyasidan iborat bo'lib, ularni eftaliylar podshosiga tobe merosiy sulolalar boshqargan. Dastlab ko'chmanchi bo'lgan bu xalqlar, keyinchalik boshqa hududlarni, chegara davlatlarga hujumlar uyishtirib, shaharlarni egallagan. Shu bilan birga aytish kerakki, mana shu tariqa o'troq hayot kechirishni ham boshlagandir. O'sha davr Vizantiya tarixchisi Menandr ham bu haqida o'z asarlarida "Eftaliylar shahar qabilasi sifatida ravnaq topgan. Jamiyatdagi hayotida esa mulkiy tabaqalanish mavjud bo'lgan"

Umumiy olganda ham Eftaliylar kuchli, asosan, otliq, piyodalardan iborat ko'chmanchi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Markaziy hududlaridan turib qo'shni mamlakatlarga yurishlat qilgan. Eftaliylarning janubdagi asosiy raqiblari Eron sosoniylari edi. Bu vaqti ular janubga tomon siljiy boshlashadi va bu, o'z navbatida Eron bilan munosabatlarini keskinlashib borishiga olib keladi. Sosoniylar bilan hal qiluvchi janglar davri shoh Peroz davriga (459-484-yy) to'g'ri keladi. Bir necha bor g'alaba va mag'lubiyalar bilan o'tadi, hamda Sosoniylarning Sharqqa yurishlari eftaliylar qarshiligi tufayli to'xtatiladi. Ular Eron podshohlarining ichki siyosatiga ham aralashib turishadi, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo'lida edi. Eron esa har yili katta miqdorda o'lpon va soliqlar to'lab turgan.

Shu davrda VI asrning boshlariga kelib, eftaliylar qo'l ostida Toxariston, Badaxshon, Sug'd, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoning boshqa ba'zi yerlarini birlashtirgan. Ta'kidlash joizki, eftaliylar o'zlariga tobe bo'lgan xalqlar hayotiga juda ta'sir ko'rsatmasdan, o'lpon va soliqlar undirish bilan cheklangan. Ularning O'rta Osiyodagi hukmronligi asosan harbiy kuchlarga tayanar edi.

Eftaliylarning etnik kelib chiqishi masalalari ancha murakkab hisoblanadi. Bu murakkablik shu bilan izohlanadiku, arab manbalari va tangashunoslik ma'lumotlarida eftaliylar podshosi faqat turklarga xos bo'lgan unvon-tegin, xoqon unvollari bilan birgalikda tangalarda aks etgan podshohlar aniq evropoid irqini ko'rsatganligini bildirgan.

Prokapiy Kesarskiy o'zining "Urushlar tarixi" nomli asarida eftaliylar haqida qisqacha ma'lumot beradi. U Eftallarni "Xionitlar" deb ham ataydi va ular Vizantiya imperiyasi va Sosoniylar davlatiga bo'lgan ta'sirini tasvirlaydi.[1]

Olimning boshqa asarlarida esa “Eftaliylar xun xalqlari qabilasi bo’lib, barcha xunlar ichida ular yagona oq tanlidir. Turmush tarzi jihatidan ham ular boshqa xunlarga o’xshamaydi va boshqa xunlarga o’xshab hayvonlardek yashamaydi. Ular bitta podsho boshqaruvida turadilar. Bu podsho rimliklar yoki boshqalar qolishmaydigan holda aholiga g’amxo’rlik ko’rsatadi, o’zaro va qo’shnilar bilan bo’lgan munosabatlarda hurmat mezonlariga amal qiladi “[2] kabi ma’lumotlarni ko’rishimiz mumkin.

V asrda yashagan Lazer Parbskiy eftaliylarni yeti qabiladan iborat massagetlarning yetakchi urug’laridan biri ekanligi haqida ma’lumotlar beradi. Xitoy manbalarida eftaliylar yuechjilarning boshqa bir ko’rinishi yoki gaogyuy qabilasining tarmog’i yoki qang’lilarning avlodlari sifatida ko’radilar. Undan tashqari, o’zlarini alxonlar deb atagan eftaliylar Baqtriya-Toxariston yerlarida yashab o’tgan azaliy baqtr qabilalaridan chiqqan etnik guruh ekanligi haqida fikrlar bor.

Eftaliylar davlati bilan deyarli bir xil vaqtda paydo bo’lgan va ravnaq topgan Qadimgi Hind imperiyasining Guptalar sulolasi asosiy raqibi hamda e’tiborining markazi sifatida qaralgan hudud edi. Olimlarning taxminlaricha 320-yili Chandragupta asos solgan bu davlat Shimoliy Hindistonda joylashgan. Poytaxti – Pataliputra, Chandragupta II davri( 380-414)da bir qancha hududlarni o’z ichiga olgan. Skandagupta davrida bo’ysindirilgan xalqlarning qo’zg’olonlari va saltanatning shimoliy-g’arbiy chegaralariga eftaliylarning hujumlari boshlagan. VI asr boshlarida eftaliylar Guptalar davlatining g’arbiy qismini bosib olib, uni katta tavon to’lashga majbur etishgan.

Guptalar davlati Markaziy Hindistondagi Mandasor davlati bilan ittifoq tuzib eftaliylarni mag’lubiyatga uchratgan bo’lsada, bu urushlar natijasida VI asr oxirida barham topganligini ko’rishimiz mumkin. Guptalar davlati davrida adabiyot, sa’nat, fan va falsafa yuksak darajada rivojlangan shuningdek, diniy, badiiy, ilmiy va falsafiy sohalar gullab yashnagan. Ular haqida bir nechta manbalar bor ular ichida eng muhimi Mudrarakshasa (Halqa va Hukmdor). Asarda Guptalar va ularning siyosiy muhitini aks ettiradi. Bundan tashqari siyosiy fitnalar va davlat boshqaruvi strategiyalarini yoritishi bilan mashhur.

Guptalar davlatida buddizm, hinduizm va jaynizm birgalikda tinch yashagan, ichki va tashqi savdoda rivojlangan, Ipak yo’li orqali Rim, Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo bilan savdo qilingan. Tanggalar zarbi keng yo’lga qo’yilgan. Guptalar zarb etgan tangalar san’at asarlari sifatida tanilgan.

Fa Xian o’zining “ Estaliklar” kitobida Guptalar davrida tinchlik, farovonlik, ilm fan rivojlanganligini aytib o’tgan. U yana shuningdek, Xitoy va Hindiston o’rtasida savda aloqalarini, diplomatik munosabatlarni ham aytadi. Jazolash tizimi juda adolatli ekanligini ta’kidlaydi. Ko’pchilik ko’chalarda xavfsizlikdan qo’rqmasdan sayr qilganligini yozadi. Fa Xian yozuvlari Guptalar davri Hindistonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida noyob tarixiy manba hisoblanadi. U bu yozuvlarini aniq va batafsil tarzda qoldirilganligi sababli keying davr olimlari uchun ham muhim bo’lib qolgan.[3]

Bu ikki yirik davlat o’rtasidagi munosabatlar asosan savdo aloqalariga qaratilgan. Eftaliy savdogarlari Guptalar davlati bilan ipak, ziravorlar, qimmatbaho toshlar kabi mahsulotlarni almashishgan. Guptalar Hindistonning janubiy hududlaridan qimmatbaho metallar va madaniy mahsulotlarni Eftaliylar orqali Markaziy Osiyoga tarqatgan. Madaniy va ijtimoiy ta’sirlar alohida e’tiborga sazavor bo’lishgan.

**Xulosa:** Umumiy olganda Eftaliylar va Guptalar o’rtasidagi munosabatlar bir vaqtning o’zida ham raqobat, ham hamkorlik ko’rinishida bo’lgan. Bunga misol tariqasida, yuqoridagi fikrlarni asoslagan holda madaniy va san’at ana’alarida, mintaqaviy madaniyat sifatlarida bir biriga juda

singishib ketgan. Ikkisining o'rtasidagi muntazam olib borilgan urishlar natijasida bir davlat iqtisodiy hayotida ozroq pasayish bo'lsa, ikkinchisida esa ancha og'irroq kechgan. Asosan qishloq xo'jaligi hududlari zarar ko'rgan bo'lsa, aholi ijtimoiy hayoti biroz achinarli holga kelib qolgan. Shu tariqa VI asr o'rtalariga kelib esa Guptalar davlatida inqiroz va bir necha qismlarga bo'linib ketganligini bilishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Abulg'ozi. Shajarai Turk.-Toshkent :” Cho'lpon”, 1990.
2. Sagdullayev A, A Aminov B va boshq. O'zbekiston tarixi. Toshkent: “Akademiya”, 2000
3. Eshov B.J, Odilov A.A O'zbekiston tarixi. II jild. Toshkent: “ Yangi asr avlodi”, 2014
4. Prokapiy Kesarskiy, Lazer Parbskiy hikoyalari, Toshkent:
5. Mudraraksha Vishakhadatta, Fa Xian , “Estaliklar”